

# “O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

## “OLTIN ZANGLAMAS” ASARIDAGI GRADUONIMLAR

**Palvonnazarova Hayotxon Jamoladdin qizi**

*Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti  
turkiy tillar fakulteti o‘zga tilli guruhlarda o‘zbek tili  
ta’lim yo‘nalishi 2-bosqich talabasi*

**Atiyazov Sapparbay Jumamuratovich**

*Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti  
Turkiy tillar fakulteti O‘zbek tili kafedrasida assistenti*

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada tilshunoslikda endi – endi o‘rganilayotgan badiiy asarning lingvistik tahlili. “Oltin zanglamas” asaridagi graduonimlarning qisqacha ta’rifi asardan olingan misollar bilan tanishib chiqamiz.*

***Kalit so‘zlar:** graduonim, asar, maqol, matn, lingvistik tahlil, sinonimlar, badiiy asar tahlili,*

Kitob o‘qigan, o‘zini ustida ishlagan odamda qanot bo‘ladi. U befarq bo‘lmaydi. Uning kuchi bilimida bo‘ladi. Shuning uchun hech kimni pisand qilmaydi. “Kattalar”ga xushomad qilmaydi. Uning bilimi bor, ilmi bor. Mana nima uchun kitob o‘qinglar deymiz. Kitob o‘qisangiz savol berishni bilasiz”, degan edi davlat rahbari. Davlat rahbari tomonidan Yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish va ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo‘yicha ilgari surilgan beshta muhim tashabbusning bittasi aynan kitobxonlikka qaratilgan bo‘lib, u yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, ular o‘rtasida kitobxonlikni keng targ‘ib qilish bo‘yicha tizimli ishlarni tashkil etishga yo‘naltirilgan. “Oltin zanglamas” asarida O‘zbek xalqining ikkinchi jahon urushi paytidagi holatlar ochiq oydin ko‘rsatib berilgan. Bu asar 1967- yil yozilgan. O‘qituvchilik qanchalik sharaflilik kasb ekanligi ko‘rsatib berilgan. Bu asarda insonning ichki tuyg‘ulari aniq, ravshan qilib ko‘rsatib berilgan, yaxshilik va yomonlik, odamiylik insonlarning bir - birga bo‘lgan hasad, havas, sof, beg‘ubor sevgi va onaning mehri alohida ta’sirchan qilib ko‘rsatib berilgan bu asarni o‘qigan har bir inson shu davrda o‘zini tasavvur qiladi. Har bir epizodga alohida ta’riflar beradi. O‘qituvchilarning o‘rni salohiyatini shu asarda to‘liq ko‘rishimiz mumkin. Asarda faqat ijobiy obrazlar emas balki salbiy obrazlar ham mohirona yoritib berilgan.

Tilshunoslikda badiiy asarni lingvistik tahlil qilish asta sekinlik bilan rivojlanib boryapti. Badiiy asarni tashkil etadigan so‘zlar uslubiy bo‘yoqdorligi yuqoriligi bilan baholanadi. Bunday so‘zlarning ko‘pchiligini graduonimlar tashkil qiladi. Graduonimlar matn mazmunini badiiy va estetik shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ularning darajalanish xususiyati matnda o‘zining jozibasini yaqqol namoyon qila oladi. <sup>1</sup>Graduonimiya-leksemlarning ma’no guruhlari a’zolarida u yoki

<sup>1</sup> Jamolxonov H Hozirgi o‘zbek adabiy tili - Toshkent: Talqin, - 2005.

# “O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

## mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

bu belgining darajalanishi. Bunday darajalanish oppozitsiyaning (zidlanishning) bir turi deb qaraladi va shu qatordagi bosh so‘zga nisbatan belgilanadi. Masalan: «yosh» belgisiga ko‘ra (bosh so‘z ajratib ko‘rsatilgan): buzoqtana-g‘unajin-sigir; qiz-juvon-ayol, “Belgi”dagi darajalanish asosida: chiroyli-suluv-ko‘rkam-zebo; «siljish sur‘ati» belgisiga ko‘ra: yurmoq-chopmoq-yugurmoq-yelmoq kabi.

Endi esa Shuhratning “Oltin zanglamas” asaridagi graduonimlar bilan tanishamiz. Chaqaloq, bola, o‘rta yosh, kekxa.

O‘shanda koptokdek yerga ursa ko‘kka sakraydigan azamat *yigitcha* edi.

U suyab yurgan, ishchidan chiqqan *yosh o‘qituvchi* bag‘riga tashlanib “endi mening ahvolim nima kechadi?” deganga o‘xshagan bir gap qilgan edi, Sodiq:

O‘qituvchilarga qisqa-qisqa xarakteristika ham berib chiqdi, “ba’zi sir”largacha o‘rtoqlashdi. Bir *kekxa o‘qituvchi*.

U o‘yinchog‘i suvga oqib ketgan boladek ancha vaqt *xomush* yurdi.

*Xafa bo‘lma*, Jannat, u yerda ham sevgan bog‘changda ishlaysan.

Uning *ko‘ngli buzilganini* ko‘rgan Adolat xola darrov boshini silardi.

Lekin bu “nuqson” Jannatning qalbi tubiga chuqur botib borar, *ko‘ngilg‘ashlikdan* diqqatga aylanmoqda edi.

Kechagi gaplaringizni o‘ylab, *xo‘rligim* keldi.

*Qizning* tovushi Qodirning qulog‘iga goh kirar, goh kirmas edi.

*Sekretar xotin* “o‘zining tili yo‘qmi” degandek, unga ko‘zoynagi ustidan qarab qo‘ydi, keyin bu “korcholon”ga zarda qilgandek, bir harakat bilan mashinkasiga qog‘oz qo‘ydi.

Eshik oldida maktabga kirib ketayotgan bolani to‘xtatib, ishi bo‘lmasa ham ismini so‘radi, sinfini surishtirdi, uning javob berishidan zavq olayotgandek *kulib* turdi.

“Yig‘lamang, oyi, siz yig‘lasangiz, bosmachi qah-qah uradi” degani esiga tushdi.

Badiiy asarni tahlil qilish jarayonida nafaqat adabiy jihatdan, balki tilshunoslik nuqtayi nazaridan kelib chiqib ham ish tutmoq lozim. Chunki bu ikkisi bir-biri bilan chambarchas bog‘liq hisoblanib, ular bir-birini tashkil etadi. Asarda qo‘lanilgan leksik birliklar matn tarkibini shakllantiribgina qolmay, uning mazmunini ham tashkil etadi. Graduonimlar matn tarkibida qancha ko‘p qo‘llanilgan bo‘lsa, o‘quvchi uchun bu asar juda qiziqarli va mazmunli bo‘ladi. Bu paytda graduonimlar matnni sermazmun va o‘quvchini estetik zavqini oshirishiga katta hissa qo‘shadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hakimova H Semasiologiya - Toshkent: 2008.
2. Jamolxonov H Hozirgi o‘zbek adabiy tili - Toshkent: Talqin, - 2005.
3. Shuhrat Oltin zanglamas – Toshkent: Zukko kitobxon, – 2023.
4. Sharif Bobojonov Ikrom Ismoilov O‘zbek tilining so‘zlar darajalanishi o‘quv lug‘ati – Toshkent: Yangi asr avlodi - 2007.